XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 30 - dekabr VI-25-84-5-210-K/21 G'ozg'on shahar xokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437 moddalariga asosan 2022 yil uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning hamda jismoniy shaxslarning yer solig‘ining aniq miqdorlarini belgilash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2021-yil 8-noyabrdagi 06/04-01-32/2248 hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining 19/10-68220-sonli qo‘shma xati, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429, 437-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentabrdagi “Soliq majburiyatlarini bajarishda tadbirkorlik sub’ektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6307-sonli Farmoniga asosan, 2022-yil 1-yanvardan boshlab:

kameral soliq tekshiruvi natijalari bo‘yicha aniqlangan huquqbuzarliklar uchun moliyaviy sanktsiyalar qo‘llanilmasligi;

tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik uchun moliyaviy sanktsiyalar bekor qilinishi inobatga olinsin.

2.Shaharning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2022-yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisentlar miqdorlari **1 va 2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, shahar xalq deputatlari kengashlari tomonidan belgilangan G‘ozg‘on shahri bo‘yicha Soliq kodeksida belgilangan yer solig‘i stavkalarida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning

hududlarida joylashgan mahallalar kesimida **0.7** dan **3.0 gacha** kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisentlarni kiritish huquqiga ega.

Bunda yer solig‘ining amaldagi stavkalarida **1,07** baravarga indeksatsiya qilinishi inobatga olinsin hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari keyingi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisent qo‘llash ma’qullansin.

3.Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahri kengashining 2020-yil 30-dekabrdagi **VI/12-sonli** qarori 2022-yil 1-yanvar kunidan o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

4.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Shahar hokimi **А.Базаров**

Халқ депутатлари Ғозғон шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-25-84-5-210-K/21-сон қарорига
1-илова

Жисмоний шахслар бўйича 2022 йил учун қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар учун тавсия этиладиган ер солиғи ставкаси

сўмда

Т/Р	Вилоят ҳудудлари	1 кв.метр учун базавий солиқ ставкаси	Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоятлар Кенгашлари томонидан қўлланилган коэффициент ***(0,5-2,0)***		Туман (шаҳарлар) кесимида 1кв.метр учун ер солиғи	Туман (шаҳар) ҳудудлари *(МФЙ, ОФЙ, даҳалар, кўчалар)*	1 кв.метр учун базавий солиқ ставкаси	Халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари томонидан қўлланилган коэффициент ***(0,7-3,0)***		Даҳа, массив, маҳалла, кўча кесимида 1кв.метр учун ер солиғи
			камайтирувчи	оширувчи				камайтирувчи	оширувчи	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***	***7***	***8***	***9***	***10***	***11***
11	**Ғозғон шаҳар**	**260**	**0**	**0,60**	**156,0**	Мармаробод	156,0	0,7	0,0	109,2
						Тумар	156,0	0,7	0,0	109,2
						Шайхон	156,0	0,7	0,0	109,2
						Гулистон	156,0	0,7	0,0	109,2

Халқ депутатлари Ғозғон шаҳар Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-25-84-5-210-K/21-сон қарорига
2-илова

Юридик шахслар бўйича 2022 йил учун қишлоқ хўжалигига мўлжалланмаган ерлар учун тавсия этиладиган ер солиғи ставкаси

сўмда

Т/Р	Вилоят ҳудудлари	1 кв.метр учун базавий солиқ ставкаси	Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоятлар Кенгашлари томонидан қўлланилган коэффициент *(0,5-2,0)*		Туман (шаҳарлар) кесимида 1кв.метр учун ер солиғи	Туман (шаҳар) ҳудудлари *(МФЙ, ОФЙ, даҳалар, кўчалар)*	1 кв.метр учун базавий солиқ ставкаси	Халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашлари томонидан қўлланилган коэффициент *(0,7-3,0)*		Даҳа, массив, маҳалла, кўча кесимида 1кв.метр учун ер солиғи
			камайтирувчи	оширувчи				камайтирувчи	оширувчи	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*
1	**Ғозғон шаҳар**	29 000 000,0	**0,80**		**23 200 000**	Мармаробод МФЙ	23 200 000,0	0,7	0,0	16 240 000,0
						Тумар МФЙ	23 200 000,0	0,7	0,0	16 240 000,0
						Шайхан МФЙ	23 200 000,0	0,7	0,0	16 240 000,0
						Гулистон МФЙ	23 200 000,0	0,7	0,0	16 240 000,0